

**VIJDONLILIK PRINSIPI HAMDA INSOFSIZ MUZOKARA OLIB
BORISHNING BITIM HAQIQIYLIGIGA TA'SIR QILISHI**

Toshpulatova Farzona Jahongir qizi

Huquq magistri

KIRISH

Fuqarolik huquqida vijdonlilik prinsipi shartnomalar tuzish jarayonida markaziy o'rinni egallaydi. Ushbu tamoyil nafaqat tomonlar o'rtasida ishonchli munosabatlarni o'rnatish uchun asos yaratadi, balki fuqarolik muomalasida adolat va qonuniylikni saqlashning ajralmas qismi hisoblanadi.

O'tgan asrning oxirlariga kelib, shartnoma tuzish bo'yicha muzokaralarga kirishish, shuningdek, vijdonlilik prinsipining ichki tizimi va me'yoriy mazmuni to'g'risida aniq bir fikrlar paydo bo'la boshlagan. Vijdonlilik prinsipida nazarda tutilgan majburiyatlarning buzilishi javobgarlikka sabab bo'lishi kerak degan g'oyalar ilgari surila boshlagan. Bunga asos sifatida esa har doim shartnomadan oldingi muzokaralarga kirishadigan taraf o'zining kontragentidan vijdon bilan harakat qilishini kutishida ekanligini bildirishgan.

Ma'lumki, vijdonlilik prinsipi har bir aniq amaliy vaziyatga tegishli bo'lishi mumkin va bu rolda butun fuqarolik huquqi uchun muhimdir. Shu nuqtai nazarda uni shunchaki ta'limot poydevorisiz, nazariy poydevorsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Huquqiy kategoriya va ilmiy tadqiqotlar obyekti sifatida vijdonlilik prinsipi yuridik fanlarning e'tiborini talab qiladigan juda katta masalalardan biri sanaladi¹.

Fovark-Kossonning ta'kidlashicha, shartnomadan oldin bo'lib o'tadigan muzokaralar jarayonida vijdonlilik prinsipining ta'minlanishi quyidagi xatti-

¹ Принцип добросовестности : развитие, система, проблемы теории и практики [Электронное издание] / К. В. Нам. – 2-е изд., перераб. и доп. – Москва : М-Логос, 2023.

harakatlar bilan bog'liq: 1) axborotning ochiqqligini ta'minlash; 2) uning maxfiyligini saqlash; 3) izchil xatti-harakatlarning olib borilishi².

Mahalliy qonunchilikda esa yuqorida qayd etilgan tarkibga qo'shimcha ravishda, insofsiz deb tasniflanishi mumkin bo'lgan ikki turdagi harakatlar ham qo'shiladi, bular to'liq bo'lmagan va ishonchsiz ma'lumotlarni taqdim etish va muzokaralarning to'satdan va asossiz ravishda to'xtalishi hisoblanadi.

Shu o'rinda shartnoma tuzish jarayonida taraflar erkin bo'lishi kerak-ku, degan savol ham tug'ilishi tabiiy, albatta. Tomonlar muzokaralar olib borishda erkin ekanligi va muzokaralar jarayonida kelishuvga erishilmaganligi uchun javobgar emasligi nazarda tutilgan qoida ham mavjud³.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 354-moddasiga ko'ra, fuqarolar va yuridik shaxslar shartnoma tuzishda erkindirlar. Shartnoma tuzishga majbur qilishga yo'l qo'yilmaydi. Bu shartnoma tuzish erkinligi prinsipi hisoblanadi.

Shuningdek, fuqarolik qonunchiligimizda shartnoma tuzish chog'ida yuz beradigan kelishmovchiliklar uchun sudga murojaat qilish mumkinligi, 377-moddasiga binoan esa shartnoma tuzishdan asossiz bo'yin tovlayotgan taraf shu tufayli yetkazilgan zararlarni boshqa tarafga to'lashi kerakligi belgilangan, lekin bu qoidalar to'lig'icha ochib berilmagan.

Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksining 434.1-moddasiga qaraydigan bo'lsak, u yerda shunday belgilanganki, agar qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, fuqarolar va yuridik shaxslar

² Фоварк-Коссон Б. Переговоры о заключении и пересмотре договора: французская перспектива// Вестник ВАС РФ. 2016. №2.С. 40-52.

³ Eisenberg M.A. Foundational Principles of Contract Law. 2018. P. 595–623F.

shartnoma tuzish bo'yicha muzokaralarda erkindirlar, ularni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarni mustaqil ravishda o'z zimmalariga oladilar va kelishuvga erishilmaganligi uchun javobgar hisoblanmaydilar⁴.

Shartnoma tuzish bo'yicha muzokaralarga kirishda, ularni amalga oshirish jarayonida va ularni tugatgandan so'ng ham tomonlar vijdonan harakat qilishlari kerakligi belgilangan. Xususan, boshqa tomon bilan kelishuvga erishish niyati bo'lmagan taqdirda shartnoma tuzish va ularni davom ettirish to'g'risida muzokaralarga kirishishga yo'l qo'yilmasligi kerak. Quyidagi harakatlar, vijdotsiz xatti-harakatlar sifatida baholanadi:

❖ muzokaralar jarayonida to'liq bo'lmagan yoki noto'g'ri ma'lumot berish, shu jumladan, shartnomaning mohiyati tufayli boshqa tomonga yetkazilishi kerak bo'lgan axborotlar haqida sukut saqlab turish;

❖ muzokaralar jarayonida ishtirok etayotgan boshqa tomon buni oqilona kuta olmaydigan sharoitlarda shartnoma muzokaralarining to'satdan va asossiz ravishda bekor qilinishi⁵.

Yana bir tadqiqotchilardan bo'lgan O.V.Mazur shartnoma tuzish bo'yicha muzokaralar bir vaqtning o'zida bir nechta potensial kontragentlar bilan olib borilishi mumkinligini ta'kidlagan. Bir nechta uchinchi shaxslar bilan muzokaralar olib borish o'z-o'zidan shartnoma tuzish niyati yo'qligini ko'rsatmasligini va bu vijdotsiz xatti-harakatlar sifatida baholanmasligini, chunki fuqarolik huquqi ishtirokchilari o'z manfaatlarida harakat qilishlari hamda o'z huquqlarini

⁴ Гражданский кодекс Российской Федерации. Часть 1: федер. Закон Российской Федерации от 30.11.1994 №51-ФЗ (ред. от 18.07.2019) // Собрание законодательства РФ. - 1994. - № 32. - Ст. 3301.

⁵ Гражданский кодекс Российской Федерации. Часть 1: федер. Закон Российской Федерации от 30.11.1994 №51-ФЗ (ред. от 18.07.2019) // Собрание законодательства РФ. - 1994.).

o'zlarining xohishlariga ko'ra amalga oshirishi mumkinligini, biroq muayyan sharoitlarda parallel ravishda olib borilgan muzokaralar, jumladan, qaysidir shartnoma tarafi bilan muzokaralarning eksklyuzivligini ta'minlash majburiyatini olgan bo'lsa, vijdonlilik tamoyilining buzilishi sifatida qabul qilishi mumkinligini bildirgan⁶.

Turli davlatlarning qonunchiligi bu holatlarni har xil talqin qiladi va tartibga soladi. Masalan, Germaniya va Gollandiya qonunchiligi shartnomadan oldingi muzokaralar jarayonida vijdonlilik prinsipini buzgan holda harakat qiladigan aybdor tarafga nisbatan javobgarlikning mavjudligini belgilaydi. Lekin ingliz qonunchiligiga qaraydigan bo'lsak, ular boshqacha fikr yuritishadi, ya'ni shartnoma tuzish jarayonida taraflar erkin bo'lishi kerak va muzokaralardan chiqmoqchi bo'lsa, bu haqida ikkinchi tarafni xabardor qilishga majbur emas va nazariy jihatdan qonunchilikka bunday xatti-harakatlar uchun javobgarlik belgilab qo'yish imkonsiz, degan g'oyalarni ilgari suradi⁷.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 535-moddasiga ko'ra, mulk ijarasi shartnomasi bo'yicha ijaraga beruvchi ijaraga oluvchiga haq evaziga mol-mulkni vaqtincha egalik qilish va foydalanish yoki foydalanish uchun topshirish majburiyatini oladi⁸. Misol sifatida ushbu shartnomani tuzishdan oldingi muzokaralar bosiqchiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, fuqaro A o'zining uyini ijaraga berish bo'yicha fuqaro B bilan kelishdi. U fuqaro B ning talablariga binoan, uyning fotosuratlarini telegram ijtimoiy tarmog'i orqali tashlab berdi va u fuqaro ijaraga

⁶ Мазур О.В. Преддоговорная ответственность: анализ отдельных признаков недобросовестного поведения // Закон. – 2012. – № 5. – С. 200.

⁷ Commentaries on European Contract Laws / N. Jansen, R. Zimmermann (eds.). 2018. P. 345–505 (авторы раздела – U. Babusiaux и D. Căstle- Lamparter).

⁸ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. II qism. <https://lex.uz/docs/-180552#-198603>.

olish niyatini bildirgandan so'ng ushbu tarmoqda taraflar ijara haqi masalalari, muddatlar masalalarini kelishishdi, bir necha kun o'tib fuqaro A kontragentiga shartnoma loyihasi ikkala tomon tasdiqlashi uchun tayyor bo'lganligi, imzolash sanasi haqida ma'lumot beradi. O'sha kun kelganda fuqaro A uyini boshqa shaxsga ijaraga berib qo'yganligini, muzokaralar jarayonidagi kontragenti bilan shartnoma tuzish niyati yo'qolganligi haqidagi axborotlarni ma'lum qilmoqda. Endi savol paydo bo'ladi, bizning sud amaliyotimiz bu holatda javobgarlik belgilaydimi yoki yo'q?

Fikrimizcha, ushbu holatda Germaniya va Gollandiya qonunchiligi singari shartnoma tuzish bo'yicha muzokaralar jarayonini asossiz va to'satdan to'xtatgan tarafga javobgarlik belgilanishi kerak. Chunki uyni ijaraga olmoqchi bo'lgan shaxs yo'l uchun xarajatlar sarflagan bo'ladi, ushbu uyni ijaraga olishga ishonib, boshqa ijaraga obyektlariga qiziqish bildirmagan bo'lishi mumkin. Bu holatlar esa o'z navbatida vijdon bilan harakat qilgan tomonga real zarar yetkazadi, shu bilan bir qatorda, kelajakda yana ijaraga ko'chmas mulk qidirib sarson bo'lishiga olib keladi. Lekin har doim ham javobgarlikning belgilanishi adolatdan bo'lmaydi, ya'ni vijdonlilik prinsipiga rioya qilmagan taraf muzokaralarni to'xtatish sababini asoslab beradigan bo'lsa, javobgarlikdan ozod qilinishi kerak.

Tanganing ikkinchi tarafiga ham qaraydigan bo'lsak, ingliz qonunchiligi qo'llaydigan huquq normasini ham qisman adolatli deb baholashimiz mumkin. Ya'ni taraflar shartnoma tuzishda erkin bo'lishi kerak. Shartnoma erkinligi prinsipi – shartnoma tuzilishida uning o'ziga xos xususiyatlarini saqlab qolishga, shartnoma shartlarining tomonlar o'rtasida adolatli, barqaror va majburiy aloqasini ta'minlashga, shartnomaning hamma tomonlari uchun o'zgaruvchanliklar va

imtiyozlar ko'rsatishga e'tibor qaratishi kerak. Agar shartnomadan oldingi yuzaga keladigan barcha nizoli holatlarga nisbatan javobgarlik belgilab qo'yiladigan bo'lsa, shartnoma tuzmoqchi bo'lgan taraflarning shartnoma tuzishdagi erkinlik prinsipiga nisbatan ishonchsizlik paydo bo'lishiga olib keladi. Shu sababli fuqarolik qonunchiligi va taqdqiqotchilar tomonidan taklif etilgan nazariyalar har doim "vijdonlilik prinsipi" va "shartnoma erkinligi prinsipi" o'rtasidagi muvozanatni saqlash kerakligini bildirishgan.

Ta'kidlash joizki, fuqarolik huquqida fuditsiar ya'ni, o'zaro ishonchga asoslangan shartnomaviy munosabatlar ham muhim o'rin tutadi. Nafaqat, fuqarolar o'rtasida balki, yirik kompaniyalar bilan boshqa xorijiy investorlar o'rtasida ham ishonchli boshqaruv shartnomalari tuzilishi keng tarqalgan holatdir. Aynan ushbu shartnomalar dastlabki muzokaralarni talab qiluvchi, ikkinchi tarafning ushbu muzokara va shartnomani tuzishdagi aloqalarda insofli harakat qilishga undovchi kelishuvlardir. Yuqorida aytilganidek, "fuditsiar"- ishonchlilik sharti ushbu turdagi shartnomalarni tuzishdagi munosabatlarning asosiy tamoyili bo'lib, vijdonli harakat qilgan Fuqarolik kodeksining 852-moddasidagi subyektlar boshqaruvning muassisi bilan shartnoma tuzishga muvaffaq bo'ladi. Bu esa shartnoma tuzishdagi muzokaralarda "vijdonlilik" hamda "insofli harakat qilish" ahamiyatini anglatadi.

Buning fuqarolik qonunchiligidagi huquqiy oqibati sifatida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 861-moddasidagi ushbu normani kelitirish mumkin. Unga ko'ra, mol-mulkni muassisi ya'ni, mulkni boshqarish uchun ishonchli boshqaruvchiga bergan shaxsning nafaqat shartnomani tuzish paytidagi, balki, shartnoma amal qilayotgan davr uchun ham ishonchli boshqaruvchining

insofsiz harakat qilishi oqibatida huquq va manfaatlariga zarar yetishidan himoya qilish sifatida qaralishi mumkin.

Haqiqiy emaslikka nisbatan ta'sirga keladigan bo'lsak, har qanday turdagi shartnoma va bitimlar ikkala tarafning vijdonlilik bilan harakat qilishi natijasida uzoq davom etadi. Kontragentlar muzokaralar davomida bir-biridan muayyan faktlarni yashirish, aldash yoki ko'zbo'yamachilik shuningdek, boshqa insofsiz harakatlar qilishlari munosabatda haqiqiylik to'g'risida nizo yuzaga keltirishga sabab bo'ladi.

Insofsiz muzokaralar bitimning haqiqiyligiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Muzokaralar jarayonining bir qismi sifatida tomonlar o'zlari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish uchun yashirin ma'lumotlar, manipulyatsiya yoki kuch ishlatish kabi turli xil insofsiz taktikalardan foydalanishlari kuzatiladi. Insofsiz muzokaralar tomonlarning qarorlariga ta'sir qilishi va muvozanatsiz va noto'g'ri bitim shartlariga olib kelishi mumkin⁹.

XULOSA

Vijdonlilik prinsipi shartnomalarni tuzish va bajarilishini tartibga soluvchi asosiy prinsiplardan biridir. Unga ko'ra, tomonlar umumiy qabul qilingan me'yorlar va odob-axloq qoidalarini hisobga olgan holda harakat qilishlari kerak. Vijdonlilik prinsipi – bitimlarda muhim rol o'ynaydi. Bu tomonlar o'rtasida halol va o'zaro manfaatli kelishuvlarga erishish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu prinsipni buzish bitimning noto'g'ri ishlashiga yoki adolatsiz ravishda bekor qilinishiga olib keladi. Natijada, bunday nohaq muzokaralar bitimning haqiqiyligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, tomonlar o'rtasida ishonchsizlik va

⁹ Гуриева, С "Теория и практика ведения переговоров." (2022).

nizolarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun, vijdonlilik tamoyiliga rioya qilish va nohaq muzokaralardan voz kechish adolatli va barqaror bitimni yaratish uchun muhimdir. Fikrimizcha, har bir mamlakatning fuqarolik qonunchiligi yoki sud amaliyoti shartnoma oldi muzokaralar jarayonida yuzaga keladigan munosabatlarga nisbatan “vijdonlilik prinsipi” hamda “shartnoma erkinligi tamoyili” o‘rtasidagi adolatni o‘rnatgan holda javob berishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. II qism.
<https://lex.uz/docs/-180552#-198603>.
2. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi. I qism.
<https://lex.uz/acts/-111189>.
3. Принцип добросовестности : развитие, система, проблемы теории и практики [Электронное издание] / К. В. Нам. – 2-е изд., перераб. и доп. – Москва: М-Логос, 2023.
4. Фоварк-Коссон Б. Переговоры о заключении и пересмотре договора: французская перспектива// Вестник ВАС РФ. 2016. №2.С. 40-52.
5. Ширвиндт А.М. Принцип добросовестности в ГК РФ и сравнительное правоведение // Aequum ius. От друзей и коллег к 50-летию профессора Д. В. Дождева / отв. ред. А. М. Ширвиндт. М.: Статут, 2014. // СПС Консультант Плюс.
6. Eisenberg M.A. Foundational Principles of Contract Law. 2018. P. 595–623F.

7. Гражданский кодекс Российской Федерации. Часть 1: федер. Закон Российской Федерации от 30.11.1994 №51-ФЗ (ред. от 18.07.2019) // Собрание законодательства РФ. - 1994. - № 32. - Ст. 3301.
8. Гражданский кодекс Российской Федерации. Часть 1: федер. Закон Российской Федерации от 30.11.1994 №51-ФЗ (ред. от 18.07.2019) // Собрание законодательства РФ. - 1994.)
9. Мазур О.В. Преддоговорная ответственность: анализ отдельных признаков недобросовестного поведения // Закон. – 2012. – No 5. – С. 200.
10. Commentaries on European Contract Laws / N. Jansen, R. Zimmermann (eds.). 2018. P. 345–505 (авторы раздела – U. Babusiaux и D. Cästle-Lamparter).
11. Гуриева, С "Теория и практика ведения переговоров." (2022).